

**ZAMONAVIY O'ZBEK TILI LEKSIK TARAQQIYOTIDA NEOLOGIZMLAR
VA ESKIRGAN SO'ZLARING O'RNI****Xudoyberdiyeva Rayhona***Samarqand davlat chet tillar instituti**Sharq tillar fakulteti 2-bosqich talabasi***MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received:01.02.2026**Revised: 02.02.2026**Accepted:03.02.2026***KALIT SO'ZLAR:***neologizm, arxaizm,
istorizmlar, , o'zlashma
so'zlar,leksik boylik, til
taraqqiyoti*

Ushbu maqolada neologizmlar (yangi so'zlar) paydo bo'lish sabablari eskirgan so'zlar (arxaizm va istorizmlar) iste'moldan chiqarib tashlash sabablari, turlari , o'zbek tilida so'nggi yillarda neologizm va eskirgan so'zlarning shakllanish mexanizmlari, til sistemasi (leksika) dagi o'rni va tildagi taraqqiyot jarayonidagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi.Tadqiqot davomida neologizmlar va eskirgan so'zlar, ularning semantik tahlili va xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, bu jarayonda tilshunoslarning ilmiy qarashlari va mavjud ilmiy manbalar asosida nazariy asoslar yoritiladi.

Kirish: Til jamiyatning ko'zgusi hisoblanadi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, madaniy va texnologik o'zgarishlari to'g'ridan-to'g'ri til rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy dunyo tez sur'atlarda o'zgarib bormoqda, va bu o'zgarishlar til tizimida ham o'z aksini topmoqda. Mamlakatimiz to'liq mustaqillikka erishgandan beri, ayniqsa XXI asrning dastlabki yillarida o'zbek tilida ko'plab yangi so'zlar paydo bo'ldi va bu jarayon davom etmoqda.

Neologizmlar muayyan davr uchun yangilik hisoblanib, dastlab tor doirada qo'llaniladi, keyinchalik esa keng omma nutqiga singib boradi. O'zbek tilida

neologizmlarni o'rganish tilning rivojlanishini aniqlash, adabiy til me'yorlarini mustahkamlash va lug'at tizimini to'g'ri yuritish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Mazkur maqolaning maqsadi —zamonaviy o'zbek tilidagi neologizmlar va eskirgan so'zlarning shakllanish manbalari, turlari va ularning til tizimidagi o'rnini ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat.

Asosiy qism: Neologizm (yunoncha neos —yangi, logos —so'z)—tilda yangi paydo bo'lgan yoki eski so'zning yangi ma'noda qo'llanilishi natijasida yuzaga kelgan birlikdir. Tilshunos olimlar neologizmlarni vaqtinchalik va doimiy neologizmlarga ajratadilar. Vaqtinchalik neologizmlar muayyan davrga xos bo'lib, keyinchalik iste'moldan chiqishi mumkin. Doimiy neologizmlar esa tilning lug'at tarkibida mustahkam o'rin egallaydi. Har qanday neologizm dastlab individual nutqda yuzaga keladi. Bunday neologizm ko'pchilik tomonidan tan olinsa, tilning taraqqiyot qonunlariga mos holda hosil qilingan bo'lsa va tilda ma'lum ma'noni anglatish uchun zarur deb qaralsa, shundagina umumtil neologizmiga aylanadi.

Shavkat Rahmatullayev fikriga ko'ra, Yangilik bo'yog'i bor leksemaga neologizm deyiladi. Neologizm tilga umuman mansub bo'lishi yoki yakka shaxsnutqiga xos bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra neologizm umumtil neologizmi va individual nutq neologizmi kabi turlarga bo'linadi. Leksemikada asosan umumtil neologizmi o'rganiladi. Individual nutq neologizmi uslubga xos hodisa deb qaraladi. Bundan tashqari, neologizm til taraqqiyotida faol xizmat qiladi, yangi tushunchalarni, ilm-fan, texnologiya va jamiyatdagi o'zgarishlarni ifodalash imkonini yaratadi. U eski so'zlar yetarli bo'lmagan vaziyatda tilning boyligini oshiradi, ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu tariqa, neologizm tilning evolyutsion jarayonida asosiy rol o'ynaydi, tilni zamon talabiga moslashtiradi va uning rivojlanishiga hissa qo'shadi.

A. Hojiyev neologizmlarni til taraqqiyotining muhim belgisi deb hisoblaydi. Uning fikricha, neologizm faqat yangi so'z emas, balki mavjud so'zning yangi ma'no kasb etishi natijasida yuzaga keladigan til birligi hamdir. Olim neologizmlarning jamiyat hayoti, fan va texnika rivoji bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi. Bunga misol qilib biz neologizmlarning turlariga to'xtalsak bo'ladi.

Leksik neologizm (butunlay yangi so'zlar) blogger, startup, selfiplatforma. Semantik neologizm (avvaldan mavjud bo'lgan so'zlarning yangi ma'nosi) platforma - texnik vosita ma'nosidan Internet xizmati ma'nosiga o'tgan. Bu so'zlar faqatgina yangi so'zlar emas, balki

mavjud so'zlarning yangi ma'no kasb etib hozirgi davrda keng qo'llanilib kelinayotganini ko'rsatadi.

Eskirgan so'zlar-arxaizm va istorizmlar. Arxaizm (grekcha: „archaios“ — qadimgi, ko'xna) — eskirib, iste'moldan chiqib qolgan so'z yoki ibora. Arxaizm turlariga qaraydigan bo'lsak, leksik arxaizm (arkon, mirzo va hokazo), fonetik arxaizm (ersa, birlan, emdi va hokazo), morfologik arxaizm (bilur, turur, bo'lgay, burung'i va hokazo). Arxaizm ko'proq adabiyotda o'tmish manzarasini aks ettirish, davr ruhini berishda uslu-biy vosita sifatida qo'llanadi. Arxaizm haqida ko'plab olimlar ham fikr bildirishgan. I. Yo'ldoshevning takidlashicha Arxaizm tilning eski qatlamiga mansub bo'lib, hozirgi til me'yorida faol bo'lmagan, ammo mazmunan anglashiladigan so'zlarga aytiladi (o'zbek tili eksikologiyasi va frazeologiyasi). Yani bu so'zlar hozirda iste'molda mavjud emas, ammo u ifodalagan narsa hozir ham bor (ulus-xalq, bitiyozuv).

Istorizmlar (yunoncha-tarix, o'tmish) - tarixiy davrga xos bo'lib, hozirgi zamonda ifodalagan narsa, lavozim, hodisa yoki munosabat mavjud bo'lmagan so'zlardir. Shu sababli ular zamonaviy til faol qatlamiga kirmaydi. Misol uchun biz-amir, bek, xonlik, kanizak, yasovul, tanga so'zlarini olamiz. Bu so'zlar angaltgan tushuncha ham, so'zning o'zi ham o'tmishda qolgan. A. Hojiyevning fikriga ko'ra Istorizmlar — bu tilning tarixiy qatlamiga mansub bo'lib, hozirgi hayotda mavjud bo'lmagan tushunchalarni ifodalovchi so'zlardir. Ular zamonaviy tilda faol ishlatilmaydi, lekin tarixiy matnlarda asosiy ma'lumot manbai sifatida xizmat qiladi.

Bunday so'zlarning til taraqqiyotidagi o'rniga qaraydigan bo'lsak, neologizmlar tilning yangi tushunchalarni, hodisalarni, texnologiyalarni ifodalash uchun yaratiladi, tilning faol, yangilanayotgan qatlamini ifodalaydi. Yangi so'zlar orqali til rivojlanadi va zamon talabiga moslashadimi. Arxaizm va istorizm so'zlar orqali esa i tilning o'tgan davrdagi shakllari, talaffuzi va leksik boyligi haqida ma'lumot olinadi.

Mening fikrimcha, neologizmlar va eskirgan so'zlar til taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Arxaizm va istorizmlar tilning tarixiy qatlamini saqlab, o'tgan davrning ruhini, ijtimoiy va madaniy hayotini ifodalaydi. Shu bilan birga, neologizmlar tilni yangilaydi, zamonaviy hayot, texnologiya va ilm-fan rivojiga moslashish imkonini yaratadi. Arxaizm va istorizmlar orqali biz tilning tarixiy rivojlanishini tushunamiz, neologizmlar esa tilning kelajakdagi istiqbolini belgilaydi. Shu tarzda, eski va yangi so'zlar bir-birini to'ldiradi va tilning boyligi, moslashuvchanligi hamda ifodaviy imkoniyatlarini oshiradi.

Xulosa: Ushbu maqolada neologizmlar va eskirgan so'zlar haqida malumotlar berildi va til taraqqiyotidagi o'rni haqida tahlil qilindi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, arxaizm, istorizm va neologizmlar til taraqqiyotining uch asosiy komponenti hisoblanadi. Eskirgan so'zlar til tarixini saqlasa, neologizmlar uni yangilaydi va zamonaviy hayotga moslashtiradi. Shu bilan birga, badiiy va ilmiy matnlarda arxaizm va istorizmlar tarixiy haqiqatlarning aks ettirishda katta xizmat qiladi, neologizmlar esa yangicha ifoda va kreativlik imkonini yaratadi. Shunday qilib, eski va yangi leksik birliklar bir-birini to'ldirib, tilning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmatullayev Sh. Zamonaviy o'zbek adabiy tili. — Toshkent: Universitet, 2006.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.
3. Yo'ldoshev I., Shermatov A. O'zbek tili leksikologiyasi. — Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006-2008.
5. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.